

SUN'IY INTELLEKT VA JAMIYAT

Kutlimuratova Difuza Sharjau qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti Yuridika fakulteti 2-kurs talabasi

Sun'iy intellekt insonning eng katta yutug'imi yoki eng katta xatosimi - bu bizning qo'limizda – Stephen Hawking

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bugungi kunda dunyo miqyosida keng qo'llanilib kelinayotgan sun'iy intellekt texnologiyalari, ularning foydasi va zararlari, bundan tashqari sun'iy intellektning turli tarmoqlarga asosan, ilm-fan, jamiyat va davlatning har xil tarmoqlariga ta'siri haqida tahlil qilinadi. Shuningdek sun'iy intellektidan butun dunyo foydalanar ekan, demak O'zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak va bunga qonunchiligimizda qanday qoidalar belgilangan va sun'iy intellektidan foydalanish tartibi haqida keng muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *SI (sun'iy intellekt), raqamli texnologiya, avtomatlashtirish, xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlar.*

Hozirgi kunda keng tarqalgan dolzarb mavzulardan biri bu sun'iy intellekt hisoblanadi, xo'sh sun'iy intellekt o'zi nima? sun'iy intellekt bu (SI; inglizcha :artificial intelligence, AI) - inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi.

Alan Turing sun'iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqot muallifi bo'lgan. Sun'iy intellektga 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan. Shu yilning yozida Dartmouth kollejida o'tgan anjumanda John McCarthy „sun'iy intellekt“ atamasini birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallifi o'laroq kirgan.

Sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlar XX asr o'rtalaridan beri qilinib kelinsa-da, unga nisbatan ommaviy qiziqish 2012-yilda chuqur o'rganib boshqa sun'iy intellekt metodlaridan ustunligini namoyon etganda hamda 2017-yilda transformer arxitekturasida erishilgan yutuqlar ortidan keskin ortgan. 2020-yillar boshlarida mazkur soha g'urkirab rivojlanib, ko'plab shirkatlar, universitetlar va laboratoriyalar sun'iy intellekt sohasida sezilarli yutuqlarga erishib kelishmoqda.

Sun'iy intellect hozirda ommalashgan bo'lib uni keng jamiyatchilikda juda ko'p foydalanishadi, shu jumladan sun'iy intellekt (SI) jamiyatning turli sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. U nafaqat iqtisodiy va texnologik taraqqiyotga, balki ijtimoiy hayot, madaniyat, ta'lim va axloqiy qadriyatlarga ham sezilarli ta'sir qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Avvallari “sun'iy

intellekt” atamasi faqat odamlar bajarishi mumkin bo’lgan, masalan, mijozlarga xizmat ko’rsatish yoki shaxmat o’ynash vazifalarni bajarish uchun qo’llanilgan. Shuningdek, kompyuter texnologiyalarini chuqur o’rganishga ham sun’iy intellekt sifatida qaralgan. Lekin mijozlarga xizmat ko’rsatish, turli onlayn o’yinlar va kompyuter texnologiyalarini chuqur o’rganish kabilar sun’iy intellekt texnologiyalarining kichik qismi hisoblanadi. To’g’ri, sun’iy intellekt texnologiyalari odamlar bajaradigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq endilikda uning qamrovi kengaymoqda, hozirda sun’iy intellekt bilan odamlarning xarakterini, o’quvchilarning qobiliyatlarini, xodimning ishga bo’lgan qarashlarini aniqlab olish mumkin. Sun’iy intellekt yordamida juda ko’p ishlarni amalga oshirish mumkin lekin, uning foydali va xavfli tomonlari ham bor, bundan tashqari jamiyatga ham ta’siri katta. Ya’ni sun’iy intellekt hozirda media soxasiga shiddat bilan kirib keldi ayniqsa. Tasvir ustida ishlash, montaj qilish kabilarda qo’l kelyapti. Chet elda shu darajaga chiqdiki, televideniya boshlovchilarning sun’iy intellekt shakli yaratilib, dasturlar olib borilmoqda. Uning xavfliy ya’niy salbiy xavfsizlik va maxfiylik muammolari – SI katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlaydi, bu esa shaxsiy ma’lumotlarning buzilishi yoki noto’g’ri ishlatilish xavfini oshiradi. Noto’g’ri qarorlar – SI algoritmlari xatolarga yo’l qo’yishi yoki noto’g’ri ma’lumotlarga asoslangan qarorlarni qabul qilishi mumkin. Masalan, tibbiyot yoki moliya sohasida noto’g’ri tavsiyalar berishi ehtimoli bor. Bundan tashqari sun’iy intellekt odamlarning kitob o’qishi ya’ni izlanishiga to’sqinlik qiladi chunki odam ko’p izlanib o’tirmay tayyor javobni sun’iy intellekt danc oladi lekin undan faqat to’g’ri olamiz deb ham ayta olmaymiz chunki noto’g’ri bo’lishi ham mumkin. Bu salbiy tomonlar SI texnologiyalarini ehtiyotkorlik bilan rivojlantirish va nazorat qilish zarurligini ko’rsatadi.

Endi uning foydali tarafalariga kelsak, sun’iy intellektning shunday imkoniyatlari borki, agar qo’shiq matni berilsa va kerakli janr tanlansa, shunga qarab kuy bastalab qo’shiq aytib beradi. Qishloq xo’jaligida samaradorlikni oshiradi – Sun’iy intellekt tuproq holatini tahlil qilish, ekinlarni kuzatish va zararkunandalarga qarshi kurashish uchun qo’llaniladi. Masalan, aqlli dronlar va sensorlar dehqonchilikni yanada samarali qilishga yordam beradi. Sun’iy intellektning foydali va zararli tomonlari bor lekin uni qanday maqsadda foydalanish odamlarga bog’liq.

O’zbekistonda sun’iy intellektga munosabat qanday ?

2021- yilda prezidentning alohida qarori qabul qilinishi ushbu sohadagi ishlarni bir tizimga solish va tashkillashtirish imkonini berdi. Jumladan, “Sun’iy intellektga tayyorlik indeksida O’zbekiston Respublikasi o’rnini yaxshilash bo’yicha chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlandi. Unda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish, qishloq xo’jaligi, energetika, sog’liqni saqlash, elektron hukumat sohalariga mazkur texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan.

Neyrotarmoqlar, ulkan ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt imkoniyatlari davlat tizimlarida ham bosqichma-bosqich joriy qilina boshlandi. Ular orasida ko'lami jihatidan butun mamlakatni qamrab olgan MyID tizimini aytib o'tish mumkin. Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, bugungi kunda 23 ta bank, 5 ta yirik davlat tashkiloti ushbu tizimdan doimiy foydalanmoqda, ro'yxatdan o'tganlar soni esa 2,5 millionga yetdi. MyID birinchi navbatda shaxsni biometrik identifikatsiyalash imkonini beradi va natijada jarayonga ketadigan vaqtni 1 soniyaga tushiradi, hujjatlarni tekshirish butkul avtomatlashadi. Yana bir o'ziga xos loyiha – qishloq xo'jaligi yerlari va ekinlari monitoringi loyihasi doirasida kosmosdan va dronlar bilan olingan suratlar, real vaqt rejimida to'planadigan ma'lumotlar asosida dalalar sun'iy intellekt yordamida monitoring qilinib, ularning geoaxborot tizimi yaratildi. Biroq kadrlar muammosi hamon ushbu yo'nalishdagi eng muhim masaladir. 2022/2023 o'quv yilidan "Sun'iy intellekt" yo'nalishida kadrlar tayyorlash bo'yicha jami 6 ta oliy ta'lim muassasalarida 245 ta kvota ajratildi. Shuningdek, alohida "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt" doktorantura yo'nalishi ochilganini qayd etish lozim. Prezident qarori asosida raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Soha bo'yicha fan doktorlari, turli yo'nalishlardagi yetuk mutaxassislarni o'zida jamlagan muassasa katta ilmiy salohiyatga ega va bundan foydalanmoqda ham. Ikki yil ichida institut tomonidan Orolbo'yi mintaqasining atrof-muhit va ekologik holatini monitoring qilish hamda nutq signallarini qayta ishlash asosida shaxsni tanib olish bo'yicha dasturiy mahsulot ishlab chiqildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi ³⁹"Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qaroriga muvofiq, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari asosidagi innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko'rsatish usullari rivojlanishi uchun qulay va maqbul ekotizim yaratish, ularni belgilab berilgan ustuvor tarmoqlar va sohalarda tezkorlik bilan joriy etish va amaliyotga tatbiq etish maqsadida: maxsus rejim etib uning doirasida sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va xizmatlarni ko'rsatish (keyingi o'rinlarda — tajriba-sinov loyihalari) bilan bog'liq faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar hamda ilmiy tashkilotlar uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy sharoit yaratish, dasturiy mahsulotlarni tajribadan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda yengillik yaratish tushuniladi; maxsus rejim Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining (keyingi o'rinlarda — IT-park) alohida bo'g'ini bo'lib, uning ishtirokchilari IT-park rezidentlari hisoblanadi va ular o'z faoliyatini eksteritoriallik prinsipi asosida amalga oshiradi; tajriba-sinov loyihalari

³⁹ PQ-5234-son 26.08.2021. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-5603319>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori bilan tasdiqlangan Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha 2021-2022-yillarda amalga oshiriladigan tajriba-sinov loyihalari hamda ustuvor tarmoqlar va sohalar doirasida amalga oshiriladi; maxsus rejim talabgorlari uchun tajriba-sinov loyihalari doirasida faoliyatga ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlarni tezlashtirilgan va soddalashtirilgan holda olish tizimi joriy qilinadi.

⁴⁰ Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvafiq, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejimni (keyingi o'rinlarda — maxsus rejim) qo'llash va uning ishtirokchilari faoliyatini tashkil etish; maxsus rejim ishchi organining faoliyatini tashkil etish, uning asosiy vazifa va funksiyalarini belgilash; talabgorlarni maxsus rejim ishtirokchilari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, ishchi organ tomonidan ariza shakli va talab etiladigan ma'lumotlar ro'yxatini tasdiqlash; maxsus rejim ekspert kengashini tarkibini shakllantirish va faoliyatini yo'lga quyish; maxsus rejim ishtirokchilariga loyihalarni samarali tashkil qilish uchun amaldagi qonunchilik hujjatlarining tegishli normalarini tajriba-sinov loyihalari muddatida istisno qilish va boshqa vazifalar belgilandi.

⁴¹ Prezidentimizning qaroroigan muvofiq Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida: Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish bo'yicha erishish lozim bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar, shu jumladan: sun'iy intellekt asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish; Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish; sun'iy intellekt yo'nalishida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish hamda yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish; Hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) O'zbekiston Respublikasining birinchi 50 ta o'rindagi davlatlar qatoriga kirishiga erishish; Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalar: sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish, sohada standartlarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash; ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish,

⁴⁰ 717-сoҳ 29.11.2021. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida
<https://lex.uz/docs/-5746496>

⁴¹ PQ-358-сoҳ 14.10.2024. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida
<https://lex.uz/docs/-7158604>

ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo'nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish; sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz tomonidan sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha ko'pgina islohatlar amalga oshirilishi belgilangan, shunday ekan SI ni amaliyotga tatbiq etishda ham birqancha rejalar tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatib, inson faoliyatini samaraliroq, qulayroq va tezroq qilishga yordam bermoqda. U ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot, sanoat, transport va hatto ijodiy sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'layotgan bo'lsa-da, bu rivojlanish bilan birga axloqiy, huquqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt ish joylarini o'zgartirishi, axborot tarqatish usullariga ta'sir ko'rsatishi va inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, uni jamiyat manfaatlari yo'lida boshqarish, inson qadriyatlariga mos ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. SI – inson hayotini yengillashtiruvchi qudratli vosita bo'lishi mumkin, biroq uning imkoniyatlari va xavf-xatarlari orasida muvozanat saqlash asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi. Kelajakda sun'iy intellekt bilan jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash uchun texnologik taraqqiyot va axloqiy tamoyillar birgalikda rivojlantirilishi lozim. SI insoniyat manfaatlariga xizmat qilishi uchun uni mas'uliyat bilan yaratish va nazorat qilish muhimdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 17.02.2021-yildagi 4996-son. <https://lex.uz/docs/-5297046#-5298589>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 26.08.2021-yildagi PQ-5234-son
<https://lex.uz/docs/-5603319>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori, 14.10.2024-yildagi PQ-358-son
<https://lex.uz/docs/-7158604>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori, 29.11.2021-yildagi 717-son.
<https://lex.uz/docs/-5746496>

Foydalanilgan elektron adabiyotlar dizimi:

1. <https://lex.uz>
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt